


## Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-oktabr)


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 7611,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 120,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 56,5 % ni tashkil etdi.



**B**–Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**–Ishlab chiqaradigan sanoat **D**–Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, **E**–Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish.

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI\* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati 31,6 % ga gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 9,3 % ga, o'sishi kuzatildi.


Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sanoatida 15,2 % ga, tog'-kon sanoatida 32,7 % ga pasayishi kuzatildi.

## Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 51,7 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini tashkil etdi.




## Ishlab chiqaradigan sanoat




2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4298,7 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 56,5 % ini tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining hajmi 148,9 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 2,0 %), o'rta-yuqori texnologiyali 199,1 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 2,6 %), o'rta-quyi texnologiyali 921,7 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 12,1 %), quyi texnologiyali 3029,1 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 38,8 %) ni tashkil etdi.


### Yuqori texnologiyali




### O'rta-yuqori texnologiyali



### O'rta-quyi texnologiyali



### quyi texnologiyali



**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi  
mahsulotlarning o'sish sur'ati**

2021- yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 576,8 ming l. 100% spirti (2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 57,4 % ga kamaygan), 45,3 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (20,8 %) ishlab chiqarilib kamayishi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2020- yil Yanvar- oktabr	2021- yil yanvar- oktabr	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	57,2	45,3	-11,9
Aroq, ming l. 100% spirt	1354,6	576,8	-777,8
Sellyuloza, tonna 90%	1597,2	1657,0	59,8
Paxta tolasi, ming tonna	5,5	12,2	6,7
Paxta chigiti, ming tonna	9,4	19,3	9,9
Paxta tiviti (lint), ming tonna	0,4	1,2	0,8
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, ming tonna	25,3	18,9	-6,4
Etilen polimer qoplar, ming tonna	14,5	13,6	-0,9
Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln.kVt/s	11567,7	12464,7	897
Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming Gkal	92,8	126,6	33,8

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo'yicha)



Yumshoq bug'doy  
va spelta uni

**45,3**  
ming tonna



Aroq

**576,8**  
ming l. 100% spirt




Sellyuloza

**1657,0**  
tonna 90%



Paxta chigiti

**19,3**  
ming tonna



Paxta tiviti (lint)

**1,2**  
ming tonna



Paxta tolasi

**12,2**  
*ming tonna*



Etilen polimerli qoplar

**13,6**  
*ming tonna*



Issiqlik elektr  
markazlari (IEM)  
ishlab chiqargan  
elektr energiyasi

**12464,7**  
*mln.kVt/s*



Bug‘ va issiq suv  
(issiqlik energiyasi)

**126,6**  
*ming Gkal*




Yirik shoxli  
qoramollar uchun  
tayyor ozuqa

**18,9**  
*ming tonna*

## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3207,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (42,1 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 9,4 % ga oshganligi kuzatildi.




### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	11567,7	12464,4	896,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	92,8	126,6	33,8

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 53,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ulushini) tashkil etdi.




2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 15,2 % ga pasayishi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 2794,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 19,5 % ga o'sishi kuzatildi, jami sanoatdagi ulushi esa 36,7 % ni tashkil etdi.





Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 3,1 % ni (2020- yil yanvar-oktabr oylarida 3,8 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 34,3 % ni, shuningdek, Guliston shahri 18,7 % ni hamda Mirzaobod tumani 8,6 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishning o'sish sur'atida viloyat (119,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Sayxunobod tumanida (170,7 %) va Sardoba tumanida (160,9 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2021- yilning yanvar-oktabr oylarida)**

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>2794,9</b>	<b>100,0</b>	<b>119,5</b>
Guliston sh.	532,2	19,0	99,3
Shirin sh.	19,7	0,7	120,4
Yangiyer sh.	202,8	7,3	97,4
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	124,9	4,5	118,3
Guliston	196,3	7,0	2 m.
Mirzaobod	246,2	8,8	128,4
Oqoltin	167,8	6,0	196,3
Sardoba	77,5	2,8	160,9
Sayxunobod	207,2	7,4	170,7
Sirdaryo	895,2	32,0	111,5
Xovos	125,1	4,5	99,8

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan  
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1429,5 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi.




Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 18,8 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulush Sirdaryo tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 51,2 %), Sayxunobod (41,0 %), Sardoba tumanlarida (69,8 %) hamda Guliston shahrida (39,8 %) kuzatildi.

**Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi va indeksi**

	2021-yil yanvar- oktabr mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>7611,5</b>	<b>120,9</b>
<b>Guliston sh.</b>	<b>823,1</b>	<b>100,4</b>
<b>Shirin sh.</b>	<b>3002,0</b>	<b>108,1</b>
<b>Yangiyer sh.</b>	<b>529,3</b>	<b>109,3</b>
<i>tumanlar:</i>		
<b>Boyovut</b>	<b>335,6</b>	<b>111,8</b>
<b>Guliston</b>	<b>263,4</b>	<b>124,8</b>
<b>Mirzaobod</b>	<b>326,0</b>	<b>105,0</b>
<b>Oqoltin</b>	<b>269,8</b>	<b>122,8</b>
<b>Sardoba</b>	<b>180,6</b>	<b>130,1</b>
<b>Sayxunobod</b>	<b>316,4</b>	<b>105,2</b>
<b>Sirdaryo</b>	<b>1399,1</b>	<b>110,3</b>
<b>Xovos</b>	<b>166,2</b>	<b>108,1</b>

## Viloyatda ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, % da




Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushni Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 39,4 %), Sirdaryo tumani (18,4 %), Guliston shahri (10,8 %), Yangiyer shahri (6,9 %), Mirzaobod tumani (4,3 %), Sayxunobod tumani (4,2 %), va Boyovut (4,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Oqoltin (3,5 %), Guliston (3,5 %), Sardoba (2,4 %) hamda Xovos tumanlari (2,2 %)ga to'g'ri kelmoqda.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va  
iste'mol mollari ishlab chiqarish**  
*(2021- yil yanvar-oktabr oylari, ming so'mda)*

	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	Iste'mol mollari
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>8775,1</b>	<b>3222,2</b>
<b>Guliston sh.</b>	<b>8917,6</b>	<b>5766,5</b>
<b>Shirin sh.</b>	<b>157999,6</b>	<b>1039,0</b>
<b>Yangiyer sh.</b>	<b>11867,5</b>	<b>4546,1</b>
<i>tumanlar:</i>		
<b>Boyovut</b>	<b>2532,5</b>	<b>942,3</b>
<b>Guliston</b>	<b>3520,7</b>	<b>2624,7</b>
<b>Mirzaobod</b>	<b>4301,4</b>	<b>3247,9</b>
<b>Oqoltin</b>	<b>5061,4</b>	<b>3147,5</b>
<b>Sardoba</b>	<b>2680,3</b>	<b>1150,5</b>
<b>Sayxunobod</b>	<b>4005,3</b>	<b>2622,3</b>
<b>Sirdaryo</b>	<b>10688,2</b>	<b>6838,9</b>
<b>Xovos</b>	<b>1699,7</b>	<b>1279,6</b>

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'mol mollarining o'sishi (2020-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, % da)




**Viloyatdagi hududiy sanoat korxonalarini tomonidan ishlab  
chiqarilgan mahsulotlar hajmi va ulushi**  
*(2021- yil yanvar-oktabr oylarida)*

	<b>Mahsulot hajmi (mlrd. so'm)</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>2459,5</b>	<b>32,3</b>
<b>Guliston sh.</b>	392,3	47,7
<b>Shirin sh.</b>	22,4	0,7
<b>Yangiyer sh.</b>	260,8	49,3
tumanlar:		
<b>Boyovut</b>	305,3	91,0
<b>Guliston</b>	60,1	22,8
<b>Mirzaobod</b>	142,4	43,7
<b>Oqoltin</b>	255,1	94,5
<b>Sardoba</b>	179,0	99,1
<b>Sayxunobod</b>	104,8	33,1
<b>Sirdaryo</b>	653,7	46,7
<b>Xovos</b>	83,6	50,3



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2972,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 39,0 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushni Sardoba tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Mirzaobod tumani (99,6 %), Boyovut tumani (91,3 %), Sayxunobod tumani (57,6 %), Xovost tumani (77,8 %) Guliston (63,4 %) hamda Yangiyer shaharlarida (53,8 %) kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Sirdaryo tumani (52,5 %), Guliston tumani (47,5 %), Oqoltin tumani (59,2 %), hamda Shirin shahrida (0,8 %) sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.


## Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 2303 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 595 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 25,8 %) Guliston shahriga, 374 tasi (16,2 %) Sirdaryo tumaniga, 203 tasi (8,8 %) Yangiyer shahriga to'g'ri kelmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda**



**Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda**



2021- yil yanvar-oktabr oylarida viloyatda 420 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 57,1 foizi Guliston shahriga, Boyovut tumani, Mirzaobod tumani va Sirdaryo tumaniga to'g'ri keladi.

**Sanoat statistikasi bo'limi**

Aloqa telefoni: (067) 236-86-23